

TOSHKENT YARMARKALARINING IQTISODIY, MADANIY VA IJTIMOYIY-TARIXIY AHAMIYAT

Rajabov Vohid Muhammad o'g'li

Renessans ta'lim Universiteti Ijtimoiy -siyosiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21933950>

Annotatsiya. Maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Toshkent yarmarkalarining iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy-tarixiy ahamiyati kompleks tahlil qilingan. Yarmarkalarning savdo-sotiq markazi sifatidagi faoliyati bilan bir qatorda, ularning madaniyatlararo muloqot, axborot almashinuvi, ijtimoiy integratsiya va ma'rifiy jarayonlardagi o'rni yoritilgan. Tadqiqotda Toshkent yarmarkalarining mahalliy hunarmandchilikni rivojlantirish, kitob savdosi va matbaa mahsulotlarini tarqatish, ko'rgazmalar hamda ommaviy madaniy tadbirlarni tashkil etishdagi roli ko'rsatib berilgan. Shuningdek, yarmarkalarning turli etnik guruhlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlash, shahar madaniy muhitining shakllanishi hamda Turkiston o'lkasida bozor munosabatlarning rivojlanishiga ta'siri tahlil etilgan. Natijada Toshkent yarmarkalari iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlar kesishgan ko'p funktsiyali tarixiy institut sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: Toshkent yarmarkalari, Turkiston o'lkasi, savdo munosabatlari, madaniy integratsiya, ijtimoiy aloqalar, hunarmandchilik, ko'rgazma-yarmarkalar, axborot almashinuvi, shahar madaniyati, etnik guruhlar, ma'rifiy jarayonlar, bozor iqtisodiyoti.

Аннотация; В статье комплексно анализируется экономическое, культурное и социально-историческое значение ташкентских ярмарок конца XIX – начала XX века. Наряду с их деятельностью в качестве центров торговли рассматривается роль ярмарок в межкультурном взаимодействии, обмене информацией, социальной интеграции и просветительских процессах. В исследовании показано значение ташкентских ярмарок в развитии местного ремесленного производства, распространении книг и печатной продукции, организации выставок и массовых культурных мероприятий. Также анализируется влияние ярмарок на укрепление экономических и культурных связей между различными этническими группами, формирование городской культурной среды и развитие рыночных отношений в Туркестанском крае. В результате ташкентские ярмарки рассматриваются как многофункциональный исторический институт, находившийся на пересечении экономических, культурных и социальных процессов.

Ключевые слова: ташкентские ярмарки, Туркестанский край, торговые отношения, культурная интеграция, социальные связи, ремесленничество, выставки-ярмарки, информационный обмен, городская культура, этнические группы, просветительские процессы, рыночная экономика.

Abstract; This article provides a comprehensive analysis of the economic, cultural, and socio-historical significance of Tashkent fairs in the late nineteenth and early twentieth centuries. In addition to their function as centers of trade and commerce, the study examines the role of fairs in intercultural communication, information exchange, social integration, and educational processes. Particular attention is paid to the contribution of Tashkent fairs to the development of local handicrafts, the dissemination of books and printed materials, and the organization of exhibitions and public cultural events. The article also analyzes the impact of fairs on strengthening economic and cultural ties among various ethnic groups, shaping the urban cultural environment, and promoting market relations in Turkestan. As a result, Tashkent fairs are evaluated as multifunctional historical institutions situated at the intersection of economic, cultural, and social processes.

Keywords: Tashkent fairs, Turkestan, trade relations, cultural integration, social relations, handicrafts, fair exhibitions, information exchange, urban culture, ethnic groups, educational processes, market economy.

Toshkent yarmarsining iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlarga bir vaqtning o'zida ta'sir ko'rsatgani bilan izohlanadi. Shuningdek, ular orqali mustamlakachilik siyosati, bozor munosabatlari, madaniy almashinuv va ijtimoiy integratsiya kabi murakkab jarayonlar o'zaro bog'liq holda namoyon bo'lgan. Biroq, mavjud tadqiqotlarda yarmarkalar ko'proq iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilingan bo'lib, ularning madaniy-ma'rifiy va ijtimoiy-tarixiy ahamiyati yetarlicha kompleks yoritilmagan. Shu bois, Toshkent yarmarkalarini ko'p funktsiyali ijtimoiy institut sifatida tahlil qilish ilmiy zarurat sifatida namoyon bo'ladi. Toshkent yarmarkasi nafaqat savdo-sotiq faoliyat markazi, balki iqtisodiy va madaniy hayot

uyg'unlashgan ko'p funksiyali ijtimoiy makon sifatida shakllangan. Turkiston general-gubernatorligi hududidagi o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, tojiklar, ruslar, tatarlar va boshqa etnik guruhlar yarmarkalarda faol qatnashib, mahsulot almashinuvi bilan bir qatorda urf-odat, turmush tarzi va madaniy qadriyatlar almashinuvini ham amalga oshirilgan. Shu jihatdan yarmarkalar mintaqadagi madaniyatlararo integratsiyaning amaliy maydoniga aylandi. “Turkestantskie vedomosti” gazetasining 1870-1890-yillardagi sonlarida Toshkent yarmarkalarida milliy kiyim namunalari, xalq musiqa chiqishlari, tomoshalar va an'anaviy hunarmandchilik mahsulotlari muntazam namoyish etilgani qayd etilgan.[1– №34. – C.2]. Yarmakalarning iqtisodiy va madaniy uyg'unligi ayniqsa XIX asr oxiridagi sanoat va qishloq xo'jaligi ko'rgazmalari bilan birlashgan tadbirlarda yaqqol namoyon bo'ldi. Jumladan, 1896 yilda Toshkentda tashkil etilgan yarmarka-ko'rgazma doirasida yuzlab savdo rastalari faoliyat yuritib, mahalliy qishloq xo'jaligi mahsulotlari, paxta, ipak, hunarmandchilik buyumlari hamda Rossiya sanoat mahsulotlari birgalikda taqdim etilgan. Mazkur tadbirlarda iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ma'rifiy yo'nalish ham kuchaygan bo'lib, kitob savdosi, bosma mahsulotlar tarqatilishi va yangi texnologiyalar namoyishi yo'lga qo'yilgan. Yarmarka kunlarida rus tilidagi ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan bir qatorda o'zbek va fors-tojik tillarida chop etilgan diniy hamda dunyoviy asarlar savdoga chiqarilgan. Natijada Toshkent yarmakalari bozor munosabatlarini rivojlantirish bilan birga, aholi o'rtasida bilim, axborot va madaniy tajribaning tarqalishiga xizmat qilgan [2–C.142-147.]. Yarmakalar shahar madaniyatining rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Yarmarka kunlarida teatr tomoshalari, musiqiy chiqishlar, xalq o'yinlari tashkil etilgan. Xususan, Toshkentdagi xalq sayllari va ommaviy tomoshalar haqidagi gazeta xabarlarida yarmarka faqat savdo maydoni emas, balki shaharning madaniy hayoti markazi sifatida tasvirlangan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida e'lon qilingan materiallarda yarmarka kunlarida xalq cholg'ulari jo'rligidagi musiqiy chiqishlar, dorbozlar tomoshalari, kurash musobaqalari, milliy o'yinlar hamda turli etnik guruhlar ishtirokidagi sayillar tashkil etilgani qayd etilgan [3–№112.–C.4]. Yarmakalar milliy hunarmandchilik madaniyatini ommalashtirishda ham muhim vosita bo'lgan. Toshkent yarmakalarida mahalliy kulollar sirlangan sopol buyumlar, misgarlar bezakli maishiy anjomlar, zargarlar milliy uslubdagi taqinchoqlar, to'quvchilar esa atlas, adras va ipak mahsulotlarini namoyish etgan. Bu yerda mahsulot faqat sotilmagan, balki hunarmandlar tomonidan ishlov berish usullari ham ko'rsatilib, tomoshabinlarda estetik did va madaniy qiziqish shakllantirilgan. 1890-yilda Toshkentda o'tkazilgan Turkiston qishloq xo'jaligi va sanoat ko'rgazmasida ham mahalliy hunarmandchilik namunalari alohida bo'lim sifatida taqdim etilgani yarmakalarning madaniy-ma'rifiy vazifasini kuchaytirgan. Yarmakalar shaharning ommaviy madaniy makonini shakllantirishga ham ta'sir ko'rsatgan. Yarmarka hududlari atrofida choyxonalar, tomosha maydonlari, vaqtinchalik sahnalar va jamoaviy uchrashuv joylari vujudga kelgan. Mazkur holat Toshkent yarmakalarining iqtisodiy va madaniy jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni yuzaga keltirgan murakkab ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritganini ko'rsatadi. Chunki yarmakalarda namoyish etilgan hunarmandchilik mahsulotlari oddiy iste'mol buyumi emas, balki milliy estetik qarashlar, mahalliy ishlab chiqarish an'analari va madaniy identitet tashuvchisi sifatida namoyon bo'lgan. Mahsulotlarni tayyorlash usullarining omma oldida ko'rsatilishi savdo jarayonini tomoshaviy va ma'rifiy tusga kiritib, iste'mol madaniyati hamda badiiy did shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, hunarmandchilik namoyishlari orqali mahsulotning bozor qiymati oshirilgan, yangi xaridorlar jalb etilgan va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy imkoniyatlari kengaygan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent yarmakalari faqat savdo maydoni emas, balki turli etnik guruhlar o'rtasidagi madaniy almashinuv markazi sifatida ham faoliyat yuritgan. 1886-yilda Toshkentda o'tkazilgan Turkiston ko'rgazmasi faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Ko'rgazmaning asosiy maqsadi iqtisodiy mahsulotlarni namoyish etish bo'lsa-da, amalda u o'lkaning etnografik va madaniy imkoniyatlarini ham ko'rsatish maydoniga aylangan. Ko'rgazma hisobotlarida mahalliy ustalar tomonidan tayyorlangan zardo'zlik, kashtachilik, kulolchilik, yog'och o'ymakorligi va ipak mahsulotlari alohida pavilyonlarda joylashtirilgani qayd etilgan. Mahsulotlar faqat sotuv uchun emas, balki tashrif buyuruvchilarga ishlab chiqarish texnologiyasi va estetik xususiyatlarini ko'rsatish maqsadida namoyish etilgan. Natijada hunarmandchilik iqtisodiy faoliyatdan tashqari madaniy meros sifatida ham qabul qilina boshlagan[4–C.31-39.]. Ushbu jarayon Toshkent yarmakalari va ko'rgazmalarining iqtisodiy munosabatlar bilan cheklanmagan, balki madaniy mazmun ishlab chiqaruvchi makon sifatida ham shakllanganini anglatadi. Hunarmandchilik buyumlarining pavilyonlar bo'yicha tizimli joylashtirilishi va ularning tayyorlanish jarayoniga e'tibor qaratilishi mahsulotni oddiy bozor obyekti emas, balki mahalliy jamiyatning estetik qarashlari, mehnat tajribasi va tarixiy xotirasini aks ettiruvchi madaniy hodisa darajasiga olib chiqqan. Shu orqali iqtisodiy faoliyat madaniy namoyish bilan uyg'unlashib, hunarmandlar uchun yangi iste'mol bozori va ijtimoiy e'tirof maydoni yuzaga kelgan. Toshkentda tashkil

etilgan 1890-yilda Turkiston qishloq xo‘jaligi va sanoat ko‘rgazma-yarmarkasida o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, tojik, rus va tatar savdogarlari hamda hunarmandlari qatnashgan. Ko‘rgazma hududida mahalliy hunarmandchilik buyumlari – zardo‘zlik, kulolchilik, gilamchilik, misgarlik mahsulotlari bilan bir qatorda rus sanoat mahsulotlari, tatar bosmaxona mahsulotlari va qozoq chorvachilik xo‘jaligi namunalari namoyish etilgani qayd etilgan [5№45 – C. 2-3]. Ko‘rgazma-yarmarka Toshkentning XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi iqtisodiy va madaniy integratsiya markazi sifatidagi o‘rmini yaqqol namoyon etadi. Chunki bir makonda turli etnik guruhlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning taqdim etilishi faqat savdo hajmini oshirishga emas, balki xo‘jalik yuritish tajribalari, estetik qarashlar va ishlab chiqarish madaniyatining o‘zaro almashinuviga ham xizmat qilgan. Mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarining rus sanoat buyumlari va boshqa hududlardan keltirilgan namunalar bilan bir qatorda namoyish etilishi an‘anaviy ishlab chiqarish va zamonaviy texnologik jarayonlarning qiyosiy idrok etilishiga sharoit yaratgan. Natijada ko‘rgazma iqtisodiy raqobat maydoni bilan birga madaniy identitetlarning namoyon bo‘lishi, o‘zaro tanilishi va yangi iste‘mol madaniyatining shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatgan ijtimoiy-madaniy makon vazifasini bajargan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent yarmarkalari va savdo maydonlarida matbaa mahsulotlari, kitoblar hamda diniy-ma‘rifiy adabiyotlarning muomalaga kirishi shahar madaniy hayotining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, ayniqsa 1870–1890-yillardan boshlab Toshkentning eski shahar qismi va yarmarka hududlarida Qozon, Orenburg, Ufa hamda Istanbuldan keltirilgan bosma kitoblar sotilgan. Diniy mazmundagi Qur‘on nusxalari, fiqh va aqoid kitoblari bilan bir qatorda tarix, geografiya va ma‘rifiy mazmundagi asarlar ham aholiga taklif etilgan. Masalan, yarmarkada mahalliy hamda Rossiya hududlaridan olib kelingan bosma mahsulotlar, litografiya namunalar va o‘quv adabiyotlari alohida namoyish etilgani qayd etilgan. Ko‘rgazma-yarmarka tashrif buyuruvchilari ushbu nashrlarni xarid qilish va ular bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lgan.[6– C. 143-147.] XIX asr oxirida Toshkentda faoliyat yuritgan bosmaxonalar va kitob savdosi tarmoqlari yarmarka iqtisodiyoti bilan bevosita bog‘lan gan. Xususan, Porsev litografiyasi hamda keyinchalik mahalliy nashriyotlar orqali chop etilgan diniy va ma‘rifiy adabiyotlar savdo yig‘inlari va yarmarka kunlarida keng tarqatilgan[7– C. 214-218.]. Toshkent yarmarkasida kitob rastalari mavjudligi, bu yerda ruscha, turkiy va tatarcha nashrlar savdoga chiqarilgan. Natijada yarmarkalar aholining moddiy ehtiyojlari bilan bir qatorda ma‘naviy va ma‘rifiy ehtiyojlarini qondiruvchi axborot almashinuvi maydoniga ham aylangan [8№12. – C.4.]. Yarmarkalarning ijtimoiy-tarixiy ahamiyati ularning jamiyatdagi turli qatlamlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashdagi ro‘li bilan ham belgilanadi. Yarmarkalar savdogarlar, hunarmandlar, dehqonlar, chorvadorlar va davlat amaldorlarini bir makonda birlashtirgan. Bu esa ijtimoiy integratsiya jarayonlarini jadallashtirgan. E. Dyurkgeym nazariyasiga ko‘ra, bunday ijtimoiy aloqalar jamiyatning yaxlitligini ta‘minlovchi omillardan biridir. Yarmarkalarda nafaqat savdo bitimlari, balki turli ijtimoiy va iqtisodiy masalalar yuzasidan muzokaralar ham olib borilgan. Mazkur holat yarmarkalarni iqtisodiy almashinuv markazidan ko‘ra kengroq – jamiyat ichidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va turli guruhlar manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi institut sifatida baholash imkonini beradi. Bir hududda savdogar, hunarmand, ishlab chiqaruvchi, iste‘molchi hamda ma‘muriy vakillarning muntazam uchrashuvi iqtisodiy faoliyat bilan bir qatorda o‘zaro ishonch, hamkorlik va ijtimoiy bog‘liqlikni ham kuchaytirgan. Shu jihatdan yarmarkalar axborot almashinuvi, kelishuv va manfaatlar uyg‘unlashuvi sodir bo‘ladigan jamoaviy maydon vazifasini bajargan. Bu jarayon natijasida mahalliy xo‘jalik subyektlari o‘rtasida barqaror aloqalar shakllanib, hududiy bozorlar o‘rtasidagi integratsiya kuchaygan hamda ijtimoiy birlikni ta‘minlovchi mexanizmlar mustahkamlangan. Toshkent yarmarkasi, shuningdek, axborot almashinuvi markazi sifatida ham faoliyat yuritgan. Turli hududlardan kelgan ishtirokchilar yangiliklar, narxlar, siyosiy va iqtisodiy vaziyat haqida ma‘lumot almashganlar. Bu esa jamiyatda umumiy axborot makonining shakllanishiga xizmat qilgan. Shu nuqtai nazardan, yarmarkalarni XIX asr oxiridagi “norasmiy axborot tarmoqlari” sifatida baholash mumkin. Toshkent yarmarkalari shahar madaniyatining rivojlanishiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Mazkur jarayon Toshkent yarmarkalarining iqtisodiy faoliyat bilan cheklanmagan holda, axborot aylanishi va shahar ijtimoiy muhitining shakllanishida ham muhim o‘rin egallaganini ko‘rsatadi. Yarmarka kunlarida turli hududlardan kelgan savdogarlar, vositachilar va mahalliy aholi o‘rtasida tovar narxlari, hosildorlik holati, transport yo‘nalish lari, ma‘muriy qarorlar hamda mintaqadagi siyosiy o‘zgarishlarga oid ma‘lumotlar tez tarqalgan. Bu esa rasmiy boshqaruv tizimidan tashqarida faoliyat yurituvchi kommunikativ makon yuzaga kelishiga olib kelgan. Axborot almashinuvining muntazam tus olishi Toshkentning mintaqaviy markaz sifatidagi mavqei kuchaytirib, shahar hayotida yangi ijtimoiy faollik, jamoaviy muloqot madaniyati va urbanistik munosabatlarning rivojlanishiga zamin yaratgan. Toshkent yarmarkasi va madaniy hayot o‘rtasidagi bog‘liqlik fotografiya va

vizual madaniyatning kirib kelishi orqali ham kuchaygan. XIX asr oxirida Toshkentdagi ko'rgazmalarda Rossiyadan keltirilgan fotografik apparatlar va tayyor suratlar namoyish etilgan. Mahalliy aholi uchun bu yangi vizual tajriba hisoblangan. Ayrim hisobotlarda tashrif buyuruvchilar ko'rgazma davomida suratga tushgani va tayyor fotografiyalar sotilgani qayd etiladi. Bu esa an'anaviy og'zaki madaniyatdan vizual madaniyatga o'tish jarayonining bir ko'rinishi bo'lgan[9– C. 74-76.]. Ushbu holat Toshkent yarmarkalari va ko'rgazmalarining nafaqat iqtisodiy hamda savdo aloqalarini kengaytirganini, balki shaharda yangi madaniy amaliyotlarning shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi. Fotografik apparatlar va tayyor suratlarning namoyish etilishi mahalliy aholining yangi texnologik va estetik tajriba bilan tanishishiga imkon yaratgan. Ayniqsa, tashrif buyuruvchilarning suratga tushishi va fotografik tasvirlarning ommaviy muomalaga kirishi inson, makon va voqeani qabul qilish usullarida o'zgarish yuzaga keltirgan. Natijada vizual tasvir kundalik hayotning muhim elementi sifatida shakllana boshlagan va madaniy xotirani yaratishning yangi vositasiga aylangan. XIX asr oxiridagi ko'rgazma tavsiflarida Turkistonning turli hududlaridan kelgan savdogar va hunarmandlar mahsulot bilan birga o'z milliy kiyimlari, kundalik turmush buyumlari va urf-odatlarini ham namoyon etgani yoziladi. Ayniqsa, rus matbuotida mahalliy aholi vakillarining atlas, chopon, salla, zardo'z kiyimlarda ishtirok etishi alohida tasvirlangan[10– C. 90-94.]. Bu holat yarmarkani iqtisodiy emas, balki madaniy reprezentatsiya maydoniga aylantirib etnografik o'zini namoyish qilish maydoni bo'lganligini ifodalaydi. Shuningdek, Toshkent yarmarkasi madaniy jihatdan til va kommunikatsiya madaniyatining shakllanishi orqali ham ta'sir ko'rsatgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent yarmarkalarida savdo jarayonlari bir necha tilda olib borilgan: turkiy (o'zbek), qozoq, tojik, tatar va rus tillari amaliy muomala vositasiga aylangan. Ayrim savdogarlar bir necha tilda savdolashish va bitim tuzishga moslashgan. Natijada yarmarka turli etnik guruhlar o'rtasida til vositachiligini kuchaytirib, ko'p tilli shahar madaniyatining shakllanishiga xizmat qilgan[11– B. 118-121.]. Turkiston yarmarkalari madaniy hayotga kundalik turmush madaniyatining yangilanishi orqali ta'sir ko'rsatgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yarmakalarda mahalliy mahsulotlar bilan bir qatorda Rossiya va Yevropadan olib kelingan chinni idishlar, samovarlar, mebel buyumlari, oynalar va uy-ro'zg'or anjomlari sotila boshlagan. Bu buyumlar dastlab shaharlardagi badavlat qatlam orasida tarqalib, keyinchalik kundalik hayotning yangi estetik me'yorlarini shakllantirgan. Masalan, Toshkentdagi savdo-ko'rgazma maydonlari orqali samovar va choy ichish madaniyatining yangi shakllari ommalashgani qayd etiladi[12–C.96-101.]. Mazkur jarayon Turkiston yarmakalarining iqtisodiy almashinuv maydoni sifatidagi funksiyasi bilan bir qatorda kundalik madaniyat transformatsiyasining ham muhim mexanizmlaridan biri bo'lganini ko'rsatadi. Yarmakalar orqali kirib kelgan chinni idishlar, samovarlar, mebel va boshqa maishiy buyumlar avvalo yangi iste'mol bozori va savdo talabini shakllantirgan bo'lsa, keyinchalik aholining turmush tarzi, estetik qarashlari va uy madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatgan. Xususan, Toshkent yarmarkasi orqali samovar va choy iste'moli bilan bog'liq yangi kundalik amaliyotlarning tarqalishi iste'mol madaniyatining iqtisodiy imkoniyatlar bilan uzviy bog'liq holda o'zgarib borganini namoyon etadi. Shu tariqa, yarmakalar tovarlar aylanishini ta'minlovchi iqtisodiy institut bo'lish bilan birga, yangi turmush me'yorlari va madaniy didni shakllantiruvchi ijtimoiy-madaniy makon sifatida ham faoliyat yuritgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Туркестанские ведомости. – 1878.
2. Лыкошин Н.С. Жизнь в Туркестане. – СПб., 1905
- 3 Туркестанские ведомости. – 1909
4. Обзор Туркестанской выставки 1886 года. – Ташкент, 1887.
5. Туркестанские ведомости, 1878.
6. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – Ташкент, 1927.
7. Остроумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы. – Ташкент, 1896.
8. Туркестанские ведомости, 1890.
9. Отчёт Туркестанской выставки 1886 года. – Ташкент, 1887.
- 10 Добросмыслов А.И. Города Сырдарьинской области. – Ташкент, 1912.
- 11 Наливкин В.П. Краткий очерк быта населения Ферганской долины. – Казань, 1886.
12. Обзор Сырдарьинской области за 1895 год. – Ташкент, 1896..